



# Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar-avgust


## RAQAMLAR:

- Xizmatlar sohasida 11,3 mingta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda.
- 2018 yil yanvar-avgust oylarida bozor xizmatlari hajmi 3997,3 mlrd.so'mni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 2131,1 ming.so'mni tashkil etdi.

Yangi korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish, shuningdek, faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar tomonidan innovatsion texnologiyalardan foydalanish va ko'rsatilayotgan xizmatlar ro'yxatini kengaytirish kelgusida ish o'rinlarini ko'paytirish va aholi farovonligini oshirishga yordam beradi.

Hozirgi vaqtda xizmatlar sohasida 11,3 mingdan ortiq korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda. Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 65,4 % ni tashkil etadi.

**2018 yil 1 sentyabr holatiga korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), %




2018 yil yanvar-avgust oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 3997,3 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,1% ni tashkil etdi.

### 2018 yil yanvar-avgust oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar ishlab chiqarish hajmi

	Hajmi, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>3997,3</b>	<b>107,1</b>
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	243,1	117,0
Moliyaviy xizmatlar	387,9	120,1
Transport xizmatlari	1053,6	103,9
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	988,9	102,6
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	175,7	104,5
Savdo xizmatlari	1378,5	104,0
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	115,3	105,7
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	130,1	126,9
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	75,0	100,9
Ijara xizmatlari	111,2	105,2
Kompyuterlar va ma'shiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	97,2	105,7
Shaxsiy xizmatlar	87,8	101,0
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	37,3	115,9
Boshqa xizmatlar	104,6	109,4

2018 yil yanvar-avgust oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ta'lim xizmatlari (26,9 %), moliyaviy xizmatlari (20,1 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (17,0 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlari (15,9 %) kabi xizmat turlarida yuqori o'sish qayd etildi.


### 2018 yil yanvar-avgust oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Nisbatan pastroq o'sish sur'atlari sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (100,9 %), shaxsiy xizmatlar (101,0 %), transport bilan bog'liq xizmatlar (103,9%) kabi xizmat turlarida qayd etildi.


Jami moliyaviy xizmatlar hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi (85,3 %) etakchilik qilmoqda.

### 2018 yil yanvar-avgust oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %



Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning asosiy qismini pul-kredit sohasida vositachilik xizmatlari (97,3 %)


### 2018 yil yanvar-avgust oylarida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %



Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida yuqori texnologik xizmatlarni yanada rivojlantirish, ko'rsatilayotgan xizmatlarning yangi turlarini kengaytirish, shuningdek, ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifatini yaxshilash aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining o'sishiga ta'sir ko'rsatdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulush (97,3%) telekommunikatsiya xizmatlariga (kabel va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) to'g'ri keladi.

### 2018 yil yanvar-avgust oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari tarkibi, %



2018 yil yanvar-avgust oylarida jami aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining 1,5 % nashriyot xizmatlariga to'g'ri keldi.

Kompyuterda dasturlashtirish xizmatlarining ulushi joriy davrda aloqa va axborotlashtirish xizmatlari umumiy hajmining 0,5 % ni tashkil etdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 89,8 % ulush bilan etakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 10,2 % ga to'g'ri keladi.

### 2018 yil yanvar-avgust oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, %

